



UDK: 821.512.133 (091)

Fayzullo YAXYOYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: imronbekyaxyoyev@gmail.com

ADU dotsenti, fil.f.d. M.Tojiboyeva taqrizi asosida

TO'KHTASIN JALALOV – A SCIENTIFIC SCIENTIST

Annotation

Uzbek literary studies are distinguished from other fields by their fruitfulness in the researches conducted in the fields of linguistics and ethnology. In Uzbek Navoi studies, there are many researchers who have conducted scientific research on Hazrat Navoi's "Khamsa". But we rarely meet the name of Tokhtasin Jalolov in the list of anthropologists-researchers. To this day, T. Jalolov's scientific activities, especially those related to Navoi studies and Uzbek anthropology, remain somewhat out of the scope of research. The following article talks about the researches conducted by literary scholar, writer Tokhtasin Jalalov on Navoi's "Khamsa" and his great contribution to this field.

Key words: Alisher Navoi, "Khamsa", Navoi scholars, "Khamsa" interpretations, Tokhtasin Jalolov, "Khamsa" language, artistic features of "Khamsa" epics.

ТУХТАСИН ДЖАЛОЛОВ – УЧЕНЫЙ ХАМСАВЕД

Аннотация

В узбекском литературоведении исследования в области навоиведения и хамсаведения отличаются от других областей своей продуктивностью. Исследователи, проводившие научное исследование по "Хамсы" Хазрата Навои в узбекском навоиведении составляют большинство. Но в списке исследователей хамсаведов, мы редко встречаем фамилию Тухтасина Джалолова. На сегодняшний день научная деятельность Т.Джалолова, особенно по навоиведению, узбекской хамсаведении, несколько выходит за рамки исследований. В данной статье пойдет речь об исследовании литературоведа, деятеля Тухтасина Джалолова о "Хамсе" Навои, его большом вкладе в эту область.

Ключевые слова: Алишера Навои, «Хамса», навоиведы, интерпретации Хамсы, Тухтасин Джалолов, язык «хамса», художественные особенности поэм «Хамса».

TO'XTASIN JALOLOV – XAMSASHUNOS OLIM

Annotatsiya

O'zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslik va xamsashunoslik yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar sarmahsulligi bilan boshqa sohalaridan ajralib turadi. O'zbek navoiyshunosligida Hazrat Navoiy "Xamsa"si yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo xamsashunos-tadqiqotchilar ro'yxatida To'xtasin Jalolov ismini kamdan-kam holatlarda uchramiz. Hozirgi kungacha T.Jalolovning ilmiy, ayniqsa, navoiyshunoslik, o'zbek xamsashunosligiga oid faoliyati tadqiqot doirasidan bir qadar chetda qolib kelmoqda. Quyidagi maqolada adabiyotshunos olim, adib To'xtasin Jalolovning Navoiy "Xamsa"si yuzasidan olib borgan tadqiqotlari, bu sohaga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Xamsa", navoiyshunoslar, "Xamsa" talqinlari, To'xtasin Jalolov, "Xamsa" tili, "Xamsa" dostonlarining badiiy xususiyatlari.

Kirish. Alisher Navoiy adabiy merosi shu qadar sarmazmun va badiiy barkamolki, bu ma'naviy qadriyatlardan har bir avlod o'z zamonasi taqozosiga ko'ra bahramand bo'laveradi. Shuning uchun ham turkiy she'riyatning ulug' dahosi ijodiga bo'lgan ixlos oradan qancha asrlar o'tsa-da so'nmadi. Balki, ommalashib, nafaqt yurtimizda, balki, chet davlatlarda ham Navoiy asarlariga bo'lgan qiziqish yanada avj oldi. Buyuk mutafakkir ijodiy merosi ma'naviy - ma'rifiy dunyomizda beqiyos ahamiyatga ega. Navoiy asarlarini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kun vakillariga yetkazishda navoiyshunos olimlarning xizmati beqiyos.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday degan edi: "Navoiy nomini eshitish, bilish, Navoiy asarlarini o'qishning o'zi yetarli emas, Navoiyni anglash kerak. Navoiy bilan hamnafas bo'lib yashash kerak" [1].

O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy asarlari gultojisi hisoblanmish "Xamsa" atrofida olib borilgan tadqiqotlar anchagina sarmahsul. Besh dostonni o'zida

jamlagan, mukammal ijod mahsuli ko'p yillardan buyon navoiyshunos olimlarning nigohida, e'tirofida bo'lib kelmoqda. Navoiy "Xamsa"sinini o'rganish, uning dostonlari yuzasidan tadqiqot olib boirish yurtimiz mustaqillikka erishguniga qadar ham olib borilgan bo'lib, bu jarayon bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Ammo istiqlolgacha bo'lgan davrdagi xamsashunoslar tadqiqotlariga e'tiborimizni qaratsak, tadqiqotchilarning izlanishlarida mavzularni o'rganish jihatidan cheklanish va chegaralanishlarni kuzatamiz. Buning asosiy sababi sifatida tadqiqot olib borilgan davr, vaqt, muhit va mafkurani ko'rsatishimiz mumkin. Shunday tahlikali vaziyatda ham Navoiy dahosi haqida haq so'zni ayta olgan, qalami o'tkir, haqgo'y tadqiqotchi olimlar ham bor. Shunday tadqiqotchilardan biri zahmatkash olim, adabiyotshunos va adib To'xtasin Jalolovdir. Ammo o'zbek navoiyshunos va xamsashunos olimlar safida T.Jalolov ismi kamdan-kam zikr qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. To'xtasin Jalolov 1936-yilda O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi chaqirig'i bilan Toshkentga keladi va bu yerda T.Jalolov atqali adabiyotshunos Olim Sharafiddinov e'tiboriga tushadi. Ana shu yillarda o'zbek xalqining ulug' farzandi, davlat arbobi, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik to'yi tantanalariga tayyorgarlik ishlari bo'layotgan edi. Ana shu to'yga tayyorgarlik chog'larida Olim Sharafiddinov Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida salmoqli risola yaratdi. Mazkur risola katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Chunki bu risola e'lon qilunginiga qadar shoir shaxsiga turlicha baho berib kelinardi.

Olim Sharafiddinov risolasi Alisher Navoiy haqidagi tor, biryoqlama qarashlarni rad etdi, ulug' shoir asarlarini keng tashviq qilish, ijodini chuqurroq o'rganish kabi jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Risolada O.Sharafiddinov shunday yozadi: "Alisherni besh yuz yildan ortiq davr bizdan ajratishiga qaramay, u bugun ham xalqimiz ichida yashamoqda. Chunki ulug' shoir asarlarida butun kishilik uchun o'rtoq bo'lgan g'oyalarni, o'zbek xalqining yuksak ideal va intilishlarini, ezuvchilarga, xalqning zolimlarga qarshi asrlarcha kurashlarda voyaga yetkazgan buyuk orzu-istaklarini kuylagan, ularga yuqori badiiy to'n kiydira olgan edi" {2}. O.Sharafiddinov monografiyasi Navoiy hayot yo'li va ijodi haqida sovet navoiyshunosligida yaratilgan ilk jiddiy kitob edi. Asar daliliy materiallarga boyligi, buyuk mutafakkir faoliyatiga doir izchil va batafsil malumot berishi, asarlar tahlili jihatidan o'sha davrda yaratilgan bu sohadagi qimmatli asar edi. Shunday bo'lsada, bu risola kamchilik va nuqsonlardan holi emas. Bu haqda asarga so'zboshi yozgan olim Sotti Husayn shunday fikrlarni keltiradi: "Bu asarni hali biz Navoiyning boy hayoti, kuchli qarama-qarshiliklar ichida o'tgan kurashlarini to'la beraturg'on asar deb ayta olmaymiz. Bu asar Navoiyning hayoti va ijodiyoti haqida mukammal malumotlar beraturg'on katta ilmiy ishni boshlash yo'lida bir qarashdir..." {3}. Bu risolani mukammal hisoblamaslikka yana bir sabab, O.Sharafiddinov kitobni yozganida Navoiyning umr yo'li siyosiy faoliyati va ijodi haqida yirik manba bo'lgan Xondamirning "Makorim ul-ahloq" asarini hali topmaganligidadir. Shunday bo'lsa-da bu asar o'sha davr o'zbek navoiyshunosligida muhim ahamiyat kasb etdi. Yosh tadqiqotchi To'xtasin Jalolov ustози Olim Sharafiddinov madadi va ko'magiga tayanib, ulug' shoirming shoh asari – "Xamsa" bo'yicha tadqiqot ishlari olib bordi. Bu izlanishlarning mahsuli o'laroq yuzaga kelgan "Xamsa" talqinlari" ilmiy asari adabiyotshunoslik maydoniga o'ziga xos iste'dod kirib kelganidan darak berdi {4}.

"Xamsa" talqinlari yosh olimning dastlabki jiddiy tadqiqoti hamda e'tiborga loyiq salmoqli asarlaridan biri bo'ldi. Ko'pchilik ongida Navoiyning "Xamsa"si to'g'risidagi tasavvur hali u qadar ravshan bo'lmagan vaqtda yuzaga kelgan talqinlar turkumi ilm ahli orasida, kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Muallif tomonidan asarga yozilgan kirish so'zning intixosida yozilgan " "Xamsa" talqinlari" mening adabiyot sohasidagi birinchi qadamimdir. Men bu dargohga ulug' bobomiz Navoiyning muborak qo'llarini o'pib kirganman" {5} satrlari ham, olimning bu ishga jiddiy kirishganidan darak beradi. Bu asar esa uning zahmatli mehnatlarining shirin hosilasi edi.

"Xamsa" talqinlari" risolasi muqaddima va "Xamsa" ning besh dostoni haqidagi tahlillardan iborat. Bu risola dastlab "Yosh kuch" va "Guliston" jumallari maqolalar tarzida e'lon qilingan bo'lib, 1960-yilda yaxlit kitob shaklida nashr etilgan. Bu asar yaratilgunigacha bo'lgan davrda xamsashunos olimlar tomonidan Navoiy "Xamsa"si tadqiq etilgan, o'rganilgan. Ammo tadqiqotchilar tomonidan dostonlarning biri yoki ulardagi obrazlar haqida izlanishlar olib borilgan edi. T.Jalolovning bu asari esa, "Xamsa"ning besh dostonini yaxlit tarzda talil qilgan ilk risola edi.

Asarning muqaddima qismida muallif, Hazrat Navoiy shaxsiyatiga, chet el ijodkorlarining Navoiy haqidagi salbiy fikrlariga to'xtalib o'tib, ularga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, muqaddimada muallif "Xamsa" haqida ma'lumot berar ekan, uning yozilish sabablari, avval yozilgan shu turdagi Xamsalardan uning farqi va qimmatli jihatlarini izohlaydi. Keying qismlarda "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlarning har birini alohida-alohida tahlil qilish yo'liga o'tadi. Besh dostonni batafsil tahlil qilgach, "Xamsa"ning tili to'g'risida" {6} va "Xamsa"ning badiiy xususiyatlari" {7} ga ham to'xtalib, dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Bu ham risolaning o'zigacha bo'lgan risolalardan mukammalroq ekanligi haqidagi so'zimizni isbotlaydi.

To'xtasin Jalolov "Xamsa" ning dastlabki dostoni "Hayrat ul-abror" haqida fikr yuritardi ekan, muallif dostonning mazmun-mohiyati, yozilish sabablari, bu dostonni asarda tutgan o'rni haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi. T.Jalolov ta'kidlaganidek, Navoiy "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") asarida o'zining falsafiy qarashlarini bayon etadi. Muallif boshqa dostonlarda ilgari surmoqchi bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va falsafiy fikrlarining qisqacha ifodalanmasi, maqsadlarining majmuasidir. Ijodkor bu dostonida hayot va hayot hodisalari haqida o'z nuqtayi nazarlarini bayon qiladi. Dostonda ilmning manfaati, sevgi, vafodol, adolat va saxovat, to'g'rilik, til, shoirming og'ir ish sharoiti haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari, asarda zolim podshohlar, riyokor shayxlar haqida ham g'oyat ibratli va ta'sirli maqolotlar (suhbatlar) va hikoyalar keltirib o'tadi.

Bu doston o'zbek xamsashunoslarini o'ziga maftun qilib, sermahsul o'rganilishiga "majbur" qiladi. Akademik Vohid Zohidovning "Navoiy ijodining qalbi" {8} asarida Navoiy ijtimoiy fikrlarining "Hayrat ul-abror"dagi bayoni shoirming boshqa asarlaridagi qator misollar bilan birgalikda muallif tafakkurining mohiyatini ko'rsatishda muvaffaqiyat bilan istifoda etilganini bayon qiladi. Adabiyotshunos Izzat Sulton "Navoiyning qalb daftari" {9} kitobining "Xamsa"ning yaratilish to'g'risidagi bobda ushbu doston haqida ham so'z yuritilgan bo'lsa, f.f.d. A.Abdug'afurovning "Navoiy ijodida satira" {10} asarida "Hayrat ul-abror"dagi satirik obrazlar haqida o'rinli mulohazalar bildirilgan.

Ko'rinib turibdiki, Navoiy "Xamsa"sining birinchi kitobi "Hayrat ul-abror" to'g'risida anchagina tadqiqot ishlari olib borilgan. To'xtasin Jalolov ham "Xamsa" talqinlari" asarida ham bu dostonga atroflicha to'xtaladi. Xususan, adabiyotshunos olim dostonning "Riyokor shayxlar haqida" gi bobi ham g'oyat keskinlik bilan yozilganini ta'kidlaydi. Navoiy, din nomidan savdogarchilik qilib yurgan bu haromxo'rlar to'dasidan, eng iflos narsadan jirkangan kabi jirkandir.

"Xamsa" ning ikkinchi dostoni "Farhod va Shirin"dir. T.Jalolov o'z risolasida, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostoni bilan taqqoslaydi. Ikki doston o'rtasidagi farqli jihatlarni daillar bilan isbotlaydi. Xususan, Nizomiyning bu syujetdagi asari "Farhod va Shirin" emas, "Xisrav va Shirin" deb ataladi. U dostonning asosiy va ijobiy qahramoni Eron podshohi Xisravdir. Farhod, Shirin, Farhodning sodiq do'sti Shopur bo'lsa, ahamiyatsiz kishilar sifatida tasvir qilinadi. Navoiyda esa, buning aksi. Navoiyning dostonida markaziy obrazlar Farhod, Shirin, Shopur va Bahromlar bo'lib, bular Navoiyning olijanob g'oyalarini tashuvchidir. Shuning uchun Navoiyning butun e'tibori shularga qaratiladi. Nizomiyning sevikli qahramoni Xisrav esa Navoiyning omonsiz qahr-g'azabiga duchor bo'ladi. Navoiy Xisravni inson qiyofasida yaratilgan yirtqich sifatida o'z o'quvchisiga taqdim qiladi.

T.Jalolov "Xamsa"ning keying dostoni "Layli va Majnun"ga to'xtalib o'tar ekan, bu dostonni Sharq xalqlari folklorining eng nodir namunasi deb e'tirof etadi. Sevgi

alamlarida kuygan, hajr olovlarida yongan bu baxtsiz oshiqlar hikoyasini, ehtiros va zo'r ruhiy to'liqlanish bilan eshitmagan kishi, ehtimol, sharqda topilmas. Xalqimiz o'zining yurak javhari bo'lgan bu ajoyib dostonni ming yillar davomida saqlab, qora kunlarning alamli yodgori sifatida bizga sovg'a qildi.

Adabiyotshunos olim bu risolasida, dostonning har bir qahramoniga alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Bu qahramonlar fe'l-atvori, xarakteri, asardagi vazifasi haqida batafsil bayon qiladi. T.Jalolov Navfal haqida shunday yozadi: "Qaysning yuksak ma'naviyatidan bahra olgan, uning shaxsiyatiga to'g'ri baho bergan dostonidagi ikkinch qahramondir. Navfal o'zining insonparvarligi, muruvvati va mardligi bilan o'quvchini tamom hayratda qoldiradi. Odatda, xalq ertaklarida ba'zi oliy himmat qahramonlar zikr qilinadiki, ular ideal odamlar bo'ladi. Navfal ham ana shunday xalq orzu qilgan ideal odamning obrazidir" {11}.

"Xamsa"ning keying dostoni "Sabbai Sayyor" deb nomlanib, bu doston hayotning juda ko'p rang-barang lavhalari qamrab olingan. Bu doston Navoiyning san'atkorlik mahoratini, uning poyonsiz keng fantaziyasini, turmushning ko'p dilrabo va badnamo manzaralarini juda yaxshi bilganini ko'rsatadigan badiiy ijod namunasidir. Badiiy asarning qimmatini tayin etishda uning kompozitsiyasi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bu doston haqida so'zlaganda, eng avval uning go'zal va maroqli kompozitsiyasi ayrim ravishda ko'rsatib o'tish kerak. Bu doston o'zining ravon uslubi, rangdor tili va kishini qoyil qoldiradigan chuqur ma'noli tashbihlari, istioralari va hikmatli misralari bilangina emas, balki favqulodda mahorat bilan ishlangan kompozitsiyasi bilan ham o'quvchini hayratda qoldiradi. Bu doston "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari kabi "afsona" larga emas, balki konkret tarixiy shaxslarga asoslanib yozilgan, - deydi risolada T.Jalolov.

Beshlikning so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy"dir. Hajm jihatidan dostonlarning ichidagi eng katta bu asar haqida T.Jalolov ham boshqa dostonlarga nisbatan kengroq tahlil qiladi. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini qalamga olishdan ilgari Iskandar obrazi ustida juda ko'p bosh qotiradi, tarix kitoblarini o'qiydi. Biroq tarix kitoblaridagi Iskandar, Navoiy orzusidagi insonga mos kelmaydi. Navoiy dostonning kirish qismida Iskandar shaxsiyatiga, o'zidan avvalgi ustozlarining asarlaridagi Iskandar obrazlariga to'xtalib o'tadi. Shu sababli ham adabiyotshunos olim bu dostonni sharhlash avvalida Iskandar obrazini kitobxonga tanishtiradi.

Xulosa. "Xamsa" asari Navoiy ijodiyotining duri, gavhari sanaladi. Asarning bosh markazida qahramonlik, vatanparvarlik, samimiy do'stlik, chin va pok sevgi, haqqoniyat va adolat, insonlarning xulq-atvori, odob-axloqi, hukmdorlarning davlat boshqaruvidagi odilona siyosati kabi g'oyalar yotadi. T.Jalolov o'z risolasining muqaddima qismida Navoiy shaxsiyatiga ham to'xtalib o'tadi: "Hazrat Navoiy o'z davrida fan va san'atni o'z himoyasiga olib, ularni imkon boricha yuqori bosqichga ko'taradi. Shuning uchun ham madaniyat dunyosi, ilm-fan ahli oradan qancha asrlar o'tgan bo'lsa-da Navoiyga minnatdorlik izhor etib kelmoqda" {12}.

Navoiyning turkiy til nufuzini yuqori pog'onaga ko'targan, muallif shuhratini dunyoga tanilishiga sabab bo'lgan "Xamsa" asari syujetini xalqning yurak gavhari bo'lgan folkloridan oldi. Barchamizga ma'lumki, "Xamsa"ning syujetlarini Navoiyga qadar ulug' Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar jahon adabiyotiga olib kirgan. Shuning uchun ham ulug' xamsanavislar dostonlari tarkibidagi qahramon va syujetlarni Navoiy "Xamsa" sida ham uchratishimiz mumkin. Bu tabiiy hol, albatta. Xamsa yozish an'ana hisoblanib, uni yozishda ma'lum bir qonun-qoidalarga bo'ysuniladi. Buni to'liq anglab yetmagan, dostonlar tarkibidagi qahramonlar va syujetlarning takroriy kelish xususiyatini o'zlariga bayroq qilib olgan anchagina ziddiyatli mulohazalarni ham uchratamiz. T. Jalolov ham o'z risolasida Yevropalik olimlardan bir qanchalari Navoiyni fors-tojik shoirlarining taqlidchisi darajasiga tushirib qo'ygani, ular "Xamsa" va "Lison ut-tayr"ni original asar emas, balki forschadan tarjima, deb ko'r-ko'rona hukm chiqarganini keltirib o'tadi.

Xamsashunos olim bu fikrlarga e'tiroz bildirib: "Badiiy asarning qimmatini uning syujeti bilan emas, balki syujetga bo'lgan munosabat va uning qanday tafsir qilinishi bilan o'lchanadi. Jahon adabiyotida sayyor syujetlar juda ko'p" {13}, deydi va qator ishonarli va jonli dalillarni keltirib o'tadi. Bu orqali Navoiyning hech kimga taqlid qilmagan orginal san'atkor ekanini isbot qiladi.

Barchamizga ma'lumki, buyuk shoirlar tomonidan bir necha bor qalamga olingan mavzuda asar yozib, xalqqa manzur qilish yangi mavzuda asar yozishdan ko'ra murakkab jarayon. Ulug' so'z san'atkorlari qalamga olgan mavzularda asar yozish, ularga javob aytish uchun ulkan mutafakkir bo'lmoqlik kerak. T.Jalolov bu risolasi orqali Navoiy "Xamsa"sini boshqa shu turdagi avval yaratilgan asarlarga qiyoslab o'rgandi. Natijada Navoiy o'z "Xamsa"si mavzularini rivojlantirganini, "mundarijani mundarijasi"ni chuqurlashtira olganini, falsafiy teranlikka erisha olganini aniqladi. Qolaversa, tadqiqotchi, dostonlar qahramonlarining ismlari bir-birlariga o'xshasa ham, jismlari boshqa ekanligini, tashqi ko'rinishidan egizakka o'xshagan bu qahramonlar o'z tani, o'z joni bilan avvalgilardan farqlanishini, ularga yangi mazmun va yangi hayot baxsh etganini dalillar bilan isbotladi. Badiiy asarning qimmatini uning sujeti bilan emas, balki sujetga bo'lgan munosabat va uni qanday tafsir qilinishi bilan o'lchanadi. Jahon adabiyotida sayyor syujetlar juda ko'p. Buni olim T.Jalolov qator misollar yordamida dalillaydi.

Adabiyotshunos olim, adib To'xtasin Jalolov tahlilali bir vaziyatda Navoiy ijodini o'rganishdek mashaqqatli safarga qo'rqmasdan, dadil qadamlar bilan otladi va bu imtixonidan niyatining xolisligi, maqsadining aniqligi, o'z matonati bilan muvaffaqiyatli o'ta oldi. U o'z asari orqali og'ir bir davrda Navoiy dahosi shaxsiyatiga haqqoniy baho bera olgani, Navoiy "Xamsa"sini shu turdagi asarlarning gultojisi ekanligini isbotlab bergani, hech qanday qo'rquvlarsiz keng ommaga e'lon qilgani o'sha davr uchun katta hodisa bo'ldi. "Xamsa" talqinlari" asari To'xtasin Jalolov ismini adabiyot ixlosmandlari orasida Navoiy ijodining sinchkov tadqiqotchisi darajasiga ko'tarib, xamsashunos olim deb e'tirof etishga sabab bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Навоий даҳоси ҳақида // Маърифат. -Тошкент, 2002,- №3, 2-б.
2. Шарафиддинов О. Алишер Навоий. -Тошкент: Фафур Фулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1971. – 187-бет.
3. Юқоридаги асар, 6-бет.
4. Солиев Н. Билгич олим ва таржимон// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 2009. - № 44.
5. Жалолов Т. "Хамса" талқинлари. -Т: Ўзадабийнашр, 1960, 143 бет.
6. Жалолов Т. "Хамса"нинг тили тўғрисида// "Гулистон", 1940-йил, 10-сон, 15 бет.
7. Жалолов Т. "Хамса"нинг бадиий хусусияти// "Гулистон", 1941-йил, 2-сон, 17 бет.
8. Зоҳидов В. Навоий ижодининг қалби. – Тошкент, 1970.
9. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент, 1969.
10. Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент, 1972.

-
11. Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. -Т: Ўзадабийнашр, 1960, 60 бет.
 12. Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. -Т: Ўзадабийнашр, 1960, 5 бет.
 13. Жалолов Т. Гўзаллик оламида. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979, 328 бет.